

# Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatriga tashrif



O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yo‘ldoshev Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatriga tashrif buyurdi. Teatrning 84-mavsumi O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti 1-bosqich magistranti, sahnalashtiruvchi rejissyor Doston Haqberdiyev ijodiga mansub “Baxshi” spektaklining premerasi bilan boshlandi.



Institut rektori Ibrohim Yo'ldoshev, Teatr san'ati fakulteti Ma'murjon To'rayev, kafedra mudiri Sherzod Muhammadiyevlar ishtirok etgan spektaklda Sobiq ittifoq davrida xalqimiz boshiga tushgan kulfatlar, ularning o'zga yurtlarda chekkan azoblari, oila a'zolaridan judo bo'lishidek fojiali hayoti yorqin o'z ifodasini topgan.



Rossiyaga surgun qilingan insonning o'g'li Turg'unboyev O'zbekistonga qaytib kelib, baxshichilik san'atiga e'tiborini qaratgan, uning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan.



Sahnalashtiruvchi rejissyor Doston Haqberdiyev ijodiga mansub ushbu spektakl o'zining dolzarbligi, har bir asar qahramoni tomonidan rollarni mahorat bilan ijro etilgani bois tomoshabinlar olqishi, ularning e'tirofiga sazovor bo'ldi.

**Matbuot kotibi**